

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
M.Hamidjonov, N.Shodilbekov	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
B.Qurbonova	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
D.Xakimova	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
B.Umarov	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
Sh.Ro'zaliyev	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi.....	118
F.Yuldashev	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
A.Rajabov	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
Z.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
S.O.Omonova	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki.....	138
A.T.Tuychiyev	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.....	142
N.E.G'olibjon	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	149
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari.....	154

IQTISODIYOT

M.Adxamov	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
A.A.Oripov	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

FALSAFA

M.Qaxxarova, M.Raximshikova	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi.....	169
A.Sufiyev	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari.....	175
B.G'aniyev	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	181
S.Yuldashev	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
Sh.Usanov, E.Avazov	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni.....	190
M.Choriyeva	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
K.Saydazimov	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar.....	199
A.Mo'ydinov	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati.....	204

**RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI
FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕРВИСНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ
УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ**

**EVALUATION OF EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES BASED ON RISK
MANAGEMENT SYSTEM**

Oripov Abdumalik Abdusalomovich¹

¹Oripov Abdumalik Abdusalomovich

– Farg'ona davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida yuzaga keluvchi risklarning ta'sir darajasini aniqlash, ularning ta'sirini salbiy yoki ijobiy natija keltirishiga qarab guruhlarga ajratish, risklarning ta'sir darajalarini zonalarga ajratish tadqiq etilgan. Shu bilan birga risklarni boshqarish tizimi asosida korxonalar samaradorligini oshirish algoritmi ishlab chiqilgan.

Аннотация

В данной статье исследуется определение уровня влияния рисков, возникающих на предприятиях сферы услуг, разделение их воздействия на группы в зависимости от отрицательного или положительного результата, а также разделение уровней воздействия рисков на зоны. При этом был разработан алгоритм повышения эффективности предприятий на основе системы управления рисками.

Abstract

This article researches the determination of the level of influence of risks arising in service sector enterprises, the division of their impact into groups depending on the negative or positive result, as well as the division of the levels of risk exposure into zones. At the same time, an algorithm was developed to improve the efficiency of enterprises based on a risk management system.

Kalit so'zlar: risk, xizmat ko'rsatish korxonalari, yalpi risk, salbiy va ijobiy ta'sir etuvchi risklar, risklarni boshqarish strategiyasi, riskni maksimallashtirish, riskni minimallashtirish, risk darajasining integral ko'rsatkichi.

Ключевые слова: риск, предприятия сферы услуг, валовой риск, отрицательный и положительный риски, стратегия управления рисками, максимизация риска, минимизация риска, интегральный показатель уровня риска.

Key words: risk, service sector enterprises, gross risk, negative and positive risks, risk management strategy, risk maximization, risk minimization, integral indicator of the risk level.

KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasi uchun daromadga ta'sir etuvchi yalpi daromad hajmi va yalpi daromad darajasi riskni baholashda birlamchi ahamiyatga ega. Agar bir xizmatdan olinadigan daromad va yalpi daromad (yalpi daromadning daromadga nisbati sifatida) o'zaro bog'liq bo'lmasa, u holda bu omillar uchun bir xil xavf ehtimolini yuzaga keltiruvchi turli darajadagi o'zgarish va ta'sir omillari ushbu darajaning qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatida ehtimoliy risk yo'qotishlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- raqobatchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri sotilgan o'xshash xizmatlar ulushining oshishi tufayli korxonalar xizmatlariga talabning pasayishi natijasida sotish hajmining pasayishi;
- xizmat birligiga belgilangan xarajatlarning ortishi tufayli sotish hajmining rejalashtirilgan hajmga nisbatan kutilmagan pasayishi;
- xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ayrim resurslar uchun xarid narxidagi tebranishlar (o'sish yoki pasayish);
- korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining pasayishi;
- soliqlar, jarimalar va boshqa ajratmalarning oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlari;
- bozor konyukturasidagi o'zgarishlar ta'sirida prognoz narx darajasiga nisbatan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'rtacha bozor narxlari darajasining kutilmagan pasayishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Risklarni boshqarish deganda tashqi va ichki omillarning ta'sirini, aniqlangan risklarning har biri bilan ishlashning yuqori samarali usullarini amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini hisobga olgan holda vakolatli va aniq sharoitlarga mos holda ishlab chiqish va asoslashga qaratilgan murakkab uzluksiz jarayon tushuniladi [1].

Ilmiy adabiyotlarda risklarni aniqlash muammosiga mavjud yondashuvlarni tahlil qilish odatda riskni to'liq yoki qisman noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda qo'shimcha daromad, foyda yoki daromad shaklida ijobiy natija olish imkoniyati, shuningdek, muayyan vaziyatlarni, tashqi va ichki omillarning ta'sirini hisobga olgan holda rejalashtirilgan natijaga nisbatan zararlar shaklidagi salbiy natija sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha risklarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin [2]:


1. Salbiy risklar – yuzaga kelishi orqali salbiy yoki neytral oqibatlarga olib keluvchi xatarlar.

2. Ijobiy risklar – salbiy va neytral oqibatlardan tashqari har qanday qo'shimcha foyda olish mumkinligini nazarda tutuvchi tasodifiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi xatarlar, ularning salohiyati o'zining ijobiy ta'siri bilan xarakterlanadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan fikrlar va yondashuvlardan kelib chiqib, risk ko'rsatkichlarining multiplikativ bog'liqlikdagi omilli ta'sirini baholash usullarini qo'llagan holda risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarning yuzaga kelish vaziyatlarini hamda ularni boshqarish, ya'ni risklarni bartaraf etish yoki kamaytirish imkoniyatlarini o'rganib chiqamiz.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining samaradorligiga salbiy va ijobiy ta'sir etuvchi risklarning yig'indisi korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi yalpi riskni tashkil etadi, uning ta'sir darajasi tashqi va ichki omillarning ta'sir xususiyati va darajasiga qarab natijaviy ko'rsatkichlarning maqsadli qiymatlardan ortishi yoki kamayishiga olib kelishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Yalpi riskning xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyat samaradorligiga ta'siri⁸

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

IQTISODIYOT

Rasmdan ko'rinadiki, faoliyatning haqiqiy natijalari (Res^h)ni kamaytirish yo'nalishidagi rejalashtirilgan qiymatlardan chetga chiqish qo'shimcha xarajatlar va yo'qotishlarning ortishi hisobiga korxonani bankrot bo'lish darajasigacha olib kelishi mumkin. Haqiqiy natijalar (Res^h)ning rejalashtirilgan ko'rsatkichlar Res^r dan ijobiy og'ishi, aksincha, qo'shimcha daromad, ortiqcha foyda yoki biron-bir iqtisodiy foydaga olib keladi.

Natijada, xizmat ko'rsatish korxonasining samaradorligi asosan tashqi va ichki muhitni tartibga solishga va shu bilan salbiy ta'sirni kamaytirishga hamda xatarlarni yuzaga keltiruvchi omillarning ijobiy ta'sirini oshirishga imkon beruvchi yaxshi tashkil etilgan va samarali faoliyat ko'rsatadigan risklarni boshqarish tizimi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, risklarni boshqarish tizimi korxonaning butun faoliyatini moliyalashtirish va tashkil etishni takomillashtirishda muhim zaxiralarni shakllantiradi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining umumiy boshqarish tizimlariga integratsiyalashgan risklarni boshqarish tizimi – amalga oshirilayotgan faoliyat ko'lamini va ustuvorliklarini, shuningdek, tadbirkorlik subyektini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va yo'nalishlarini belgilab beruvchi integratsiyalashgan boshqaruvning samarali shaklidir.

Rasmdagi UR_{yg} – korxonaning yalpi risk darajasi;

Res^r – korxonaning rejalashtirilgan faoliyat natijasi;

Res^h – korxonaning haqiqatda erishilgan faoliyat natijasi;

$S_1, S_2, S_3, S_4, S_5, S'_1, S'_2, S'_3, S'_4, S'_5$ — korxonaning faoliyatidagi asosiy tashkiliy-iqtisodiy vaziyatlar.

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarni boshqarish tizimini shakllantirish, tashkil etish va faoliyat ko'rsatish bo'yicha turli tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan asosiy konseptual qoidalarni hisobga olgan holda risklarni boshqarish tizimi asosida korxonalar samaradorligini oshirish algoritmi ishlab chiqildi va amaliyotda foydalanish uchun taklif etildi (2-rasm).

Taklif etilayotgan algoritmi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriluvchi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1-bosqich. Kirish parametrlarini tahlil qilish va tizimlashtirish.

Bu bosqichda korxonalar faoliyati va uning tashqi muhitini tavsiflovchi oldindan yig'ilgan kirish parametrlarini tahlil qilish va tizimlashtirish lozim. Shu bilan birga hisob-kitoblar uchun foydalaniladigan ma'lumotlar ishonchli, aniq, axborot mazmuni talablariga javob berishi va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. Ichki muhitni tavsiflash uchun korxonaning asosiy buxgalteriya hisoboti shakllari, moliyaviy (ishlab chiqarish va iqtisodiy reja), ishlab chiqarish-texnik va boshqa hisobotlaridagi ma'lumotlardan foydalaniladi.


2-bosqich. Korxonaning faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy vaziyatini aniqlash.

Birinchi bosqichda qayta ishlangan ma'lumotlardan foydalanib, korxonaning haqiqiy ish sharoitini eng to'liq tavsiflaydigan tashkiliy-iqtisodiy vaziyat turi aniqlanadi. Asosiy xususiyatlar (ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati barqarorlik darajasi, salohiyat, foyda, xarajatlar va hokazolarning mavjudligi)ni hisobga olishdan tashqari, tashkiliy-iqtisodiy vaziyatning muayyan turiga aloqador bo'lishi lozim. Moliyaviy barqarorlikni baholash uchun omilli modeldan foydalanish taklif etiladi.

3-bosqich. Omilli bog'lanishni shakllantirish.

Mavjud ishlanmalar, tadqiqotlar, nashrlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish asosida xizmat ko'rsatish korxonalarining turli soha va faoliyat yo'nalishlaridagi xatar (risk)larni belgilovchi omil bog'lanishini yaratish lozim. Omilli bog'lanishni shakllantirishda quyidagi asosiy gipotezalarni hisobga olish kerak:

- tashqi va ichki muhitda risklarni keltirib chiqaruvchi omillar shakllanadi;
- omilli bog'lanishni shakllantirish jarayoni iqtisodiy tizimlarning barcha daraja (mega, makro, mezo, mikro, mini va nanodaraja)lari xususiyatlarini qamrab olishi lozim;
- omillar ta'siri joriy faoliyat bilan birgalikda uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari ham nazarda tutishi lozim;
- omilli bog'lanishni shakllantirish jarayonida korxonaning barcha manfaatlari hisobga olinishi lozim.



2-rasm. Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini samaradorligini oshirish algoritmi⁹

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

IQTISODIYOT

Asosiy shart-sharoitlarni hisobga olish, mavjud nazariy o'zgarishlarni umumlashtirish va tadqiqot natijalari aniqligini oshirish uchun agregatlangan guruhlar yordamida tashkil etiladigan quyidagi tashqi va ichki muhit omillaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Tashqi muhit omillari guruhi moliyaviy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy-me'yoriy, ijtimoiy-demografik, ilmiy-texnik, ilmiy-texnologik, tabiiy-geografik, mintaqaviy, tarmoq va xalqaro omillarni o'z ichiga oladi.

2. Ichki muhit omillari guruhi tarkibiga ijtimoiy-mehnat, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish, texnologik, moliyaviy-iqtisodiy, texnik, innovatsion, investitsion, marketing va foydalanish (ekspluatatsiya) omillari kiritiladi.

4-bosqich. Risklarning asosiy guruhlarini identifikatsiyalash.

O'rganilayotgan aniq korxonaga oldingi bosqichda aniqlangan omillar ta'siriga qarab risklarning asosiy guruhlarini korxonaga faoliyatiga eng ko'p ta'sir qiladigan risklarning butun xilma-xilligidan aniqlash lozim. Aniqlangan risk guruhlarining ahamiyatini aniqlash uchun ekspert baholash usulidan foydalanish mumkin. Bu bosqich oxirida umumlashtirilgan xususiyatlar bo'yicha guruhlangan birlamchi ustuvor risklar to'liq aniqlanishi lozim, ular birgalikda korxonaga riskining umumiy (integral) darajasini shakllantiradi va aniqlaydi.

5-bosqich. Risklar guruhini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarni guruh bo'yicha miqdoriy baholash uchun omillarning ta'sir darajasiga qarab har bir risk guruhini to'liq tavsiflovchi asosiy xususiy ko'rsatkichlarni tanlash zarur.

Masalan, moliyaviy-iqtisodiy risklar guruhi umumiy qabul qilingan moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar kabi to'liq tavsiflanadi:

- likvidlik va to'lovga qobillik ko'rsatkichlari;
- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari;
- tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlari;
- rentabellik ko'rsatkichlari.

6-bosqich. Risklar guruhini tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlarni hisoblash.

Bu bosqichda oldingi bosqichda tanlangan ko'rsatkichlar uchun barcha zarur hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

7-bosqich. Olingan haqiqiy qiymatlarni reja ko'rsatkichlar bilan taqqoslash.

Korxonaning integral (umumlashgan) risk darajasini hisoblash uchun xususiy ko'rsatkichlarni baholash maqsadida olingan hisoblash natijalarini indekslarning reja yoki me'yoriy qiymatlari bilan taqqoslash kerak:

- agar haqiqiy qiymatlar reja (me'yoriy) qiymatdan chetlashmasa (ya'ni $\Delta Res = 0$), u holda bu ko'rsatkich keyingi hisob-kitoblardan chiqarib tashlanishi kerak;
- agar ko'rsatkichning haqiqiy qiymati reja (me'yoriy) qiymatidan farqlansa, (ya'ni $\Delta Res \neq 0$), u holda bu ko'rsatkich korxonaning umumiy (yalpi) risk darajasini hisoblashda ishlatilishi kerak.

8-bosqich. Umumiy risk darajasining integral ko'rsatkichi ($UR_{y\alpha}$)ni hisoblash.

Xizmat ko'rsatish korxonasining umumiy risk darajasini xarakterlovchi integral ko'rsatkichni hisoblash quyidagi formula yordamida bajariladi:

$$UR_x = \sqrt[n]{\prod_{i=1}^n UR_i}$$

bu yerda UR_i – umumiy risk darajasi ko'rsatkichi;

i – sonli risk guruhi;

n – korxonaning umumiy risk darajasini shakllantiruvchi va belgilovchi tanlangan asosiy risk guruhlar soni.

i - sonli risk guruhi darajasining umumlashgan ko'rsatkichi quyidagi bog'lanish asosida aniqlanadi:

$$UR_i = \sqrt[k]{\prod_{j=1}^k R_j}$$

bu yerda k – tanlangan risk guruhi darajasini tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlar soni;

R_j — haqiqiy ko'rsatkichning reja (me'yoriy) qiymatdan og'ishi asosida aniqlangan xususiy risk koeffitsiyenti [3]:

$$R_j = 1 - \frac{Res_j^r}{Res_j^r + |Res_j^h - Res_j^r|}$$

bu yerda: Res_j^r – j -ko'rsatkichning reja (me'yoriy) qiymati;

Res_j^h – j -ko'rsatkichning haqiqiy qiymati.

R_j – ko'rsatkichning xususiy risk darajasining qiymati noldan birgacha bo'lgan oraliqda ($0 \leq R_j < 1$) yotadi.

9-bosqich. Korxonada faoliyat ko'rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy vaziyatlar chegarasida umumiy risk zonasini aniqlash.

Bu bosqich korxonaning hisoblangan integral risk darajasining ushbu tavakkalchilik sohasiga to'g'ri keladigan tashkiliy-iqtisodiy holati bilan bog'liqligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Xizmat ko'rsatish korxonasining jami risk darajasining asosiy zonalarini va maydonlari¹⁰

Tashkiliy-iqtisodiy vaziyat	Salbiy chetlanish hududi				
	S1	S2	S3	S4	S5
	Ijobiy chetlanish hududi				
	S'1	S'2	S'3	S'4	S'5
Umumiy (yalpi) risk zonasi	0 – 0,2	0,2 – 0,4	0,4 – 0,6	0,6 – 0,8	0,8 – 1
Umumiy (yalpi) risk zonalarining tavsifi	Past ta'sirga ega zona	O'rtacha ta'sirga ega zona	Kuchli ta'sirga ega zona	Yuqori ta'sirga ega zona	Maksimal ta'sirga ega zona

Integral risk qiymatlarining butun to'plami xizmat ko'rsatish korxonasining natijaviy ko'rsatkichlari, salbiy yoki ijobiy elastiklik maydonidan qat'iy nazar, 0 dan 1 gacha oraliqda yotadi.

10-bosqich. Faoliyat samaradorligini oshirish ssenariylarini tanlash.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini samaradorligini oshirishning optimal yo'llarini tanlash, ularning ma'lum bir tashkiliy-iqtisodiy vaziyatda mavjud joylashuviga qarab risklarni boshqarish ikki turdagi strategiyaga: risk (zarar)larni minimallashtirish va risk (foydani)ni maksimallashtirish strategiyasiga asoslanadi.

Zararlarni minimallashtirish strategiyasining asosiy maqsadi – korxonalarining haqiqiy faoliyat ko'rsatkichlarini reja (me'yoriy) qiymatlaridan chetlanishini kamaytirishdan iborat. Bu strategiya o'z faoliyati natijalari salbiy tashkiliy-iqtisodiy vaziyatlarda bo'lgan korxonalar uchun muhimdir.

Foydani maksimallashtirish strategiyasi asosan optimal chiqish parametrlari va ma'lum moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikka erishish sharti bilan korxonada riski (foydasi) integral darajasini oshirishga qaratilgan. Bu strategiya qulay tashkiliy-iqtisodiy vaziyatlarda bo'lgan va ularni bajarishda ijobiy chetlanishlarga ega bo'lgan korxonalar uchun mos keladi.

11-bosqich. Faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Tashkiliy-iqtisodiy vaziyatning turi, umumiy risk darajasi va ish faoliyatini yaxshilashning kutilayotgan variantini aniqlab, korxonalar kerakli natijaga erishishi uchun chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilishi lozim.

Umumiy riskni minimallashtirish strategiyasini tanlagan holda chora-tadbirlar majmui korxonaning ichki muhitiga qaratilgan bo'lishi va asosiy risk guruhlarini tashkil etuvchi ko'rsatkichlarni optimal qiymatlarga keltirishga ko'maklashishi lozim. Ushbu choralar qatoriga quyidagi tadbirlarni kiritish mumkin:

- barcha darajalardagi boshqaruv bo'g'inlari o'rtasida oqilona aloqalarni o'rnatish maqsadida korxonaning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish;
- barcha yo'nalishlarda mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, mehnat unumdorligini tubdan oshirish;
- korxonada boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, rejalashtirish va nazorat qilish;
- xizmatlar sifatini oshirish, sifatni boshqarish tizimini joriy etish yoki takomillashtirish;
- xizmat ko'rsatish texnologiyasini joriy etish;
- asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish;

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

IQTISODIYOT

- korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash;
- marketing faoliyatini takomillashtirish;
- korxonalar logistikasini takomillashtirish;
- shartnomaviy munosabatlar samaradorligini oshirish va boshqalar.

Umumiy riskni maksimallashtirish strategiyasi korxonaning ichki muhitida uning tashqi muhitiga ta'sir etuvchi chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Ushbu choralar quyidagi tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- barcha sohalarda faol maqsadli marketing vositalaridan foydalanish, yangi sotuv bozorlarini qidirish, yangi hamkorlarni qidirish;
- korxonaning ichki va tashqi manfaatdor tomonlari uchun faol boshqaruv usullarini joriy etish va qo'llash;
- faol innovatsiya va investitsiya siyosatini amalga oshirish;
- ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini shakllantirish;
- lizing operatsiyalarini boshqarish darajasini oshirish;
- risklarni boshqarishga ijodiy yondashuvni shakllantirish va undan foydalanish, boshqaruv madaniyatini takomillashtirish;
- xizmat ko'rsatish korxonalarida faoliyatni tashkil etishning samarali shakllarini qo'llash;
- moslashuvchan tashkiliy va funksional boshqaruv tuzilmalarini yaratish;
- zaxiralar tizimini yaratish;
- korxonalar fondini boyitish va boshqalar.

Tanlangan strategiyadan qat'iy nazar barcha taklif etilgan chora-tadbirlar mavjud tashkiliy-iqtisodiy vaziyat va ustuvor yo'nalishlarni hisobga olgan holda batafsil ishlab chiqilishi lozim.

12-bosqich. Ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bu bosqich nafaqat batafsil ishlab chiqilgan barcha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishni, balki zarur tuzatishlarni amalga oshirish maqsadida korxonaning tashqi va ichki muhitidagi o'zgarishlarni doimiy kuzatishni ham o'z ichiga oladi.

Faoliyat samaradorligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishda korxonalar boshqarilishi kerak bo'lgan salbiy va ijobiy xatarlarga duch keladi. Salbiy xatarni boshqarish tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda muayyan vaziyat uchun maqbul, tegishli va xavf maqbul darajasini aniqlash va tashkil etish, shuningdek, batafsil ishlab chiqish va amalga oshirish dasturlarini o'z ichiga oladi.

13-bosqich. Haqiqiy natijalar bo'yicha faoliyat samaradorligini baholash.

Bu bosqichda xizmat ko'rsatish korxonalarining amaliy faoliyatida barcha ishlab chiqilgan yechim va chora-tadbirlarni amalga oshirish natijalari olingan haqiqiy ma'lumotlar asosida baholanadi.

Korxonaning samaradorligini oshirish uning barcha ko'rsatkichlari va umumiy risk darajasining o'zgarishini takomillashtirishni tavsiflovchi belgilangan parametrlarga erishish va natijada qulay tashkiliy-iqtisodiy holatga o'tish bilan belgilanadi.

XULOSA

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillardan kelib chiqqan holda, taklif etilayotgan algoritmlar bo'yicha bosqichlarni ketma-ket bajarish jarayoni tashqi va ichki omillarning o'zgarishiga ko'ra tizimli, uzluksiz va takrorlanuvchi, moslashuvchan va tez o'zgaruvchan bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlash lozim.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarni boshqarish tizimlarining samarali ishlashiga asoslangan tavsiya etilayotgan algoritmlar bo'yicha yaxshi tashkil etilgan ish jarayoni nafaqat ularning faoliyati samaradorligini oshiradi, balki uzoq muddatda barqaror rivojlanish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Вяцкова Н. А., Хрусталёв Б. Б. Особенности формирования эффективной системы управления рисками на предприятиях строительного комплекса / Н.А.Вяцкова, Б.Б.Хрусталёв // Экономика и предпринимательство. – 2015, № 1 (54) – С. 404-413.
2. Вяцкова Н.А. Организационно-экономические ситуации функционирования и развития предприятий в условиях риска / Н.А.Вяцкова // Вопросы экономики и управления. - 2017. - № 3. - С.15-24.
3. Хрусталёв Б.Б., Малышева К.А., Сироткин И.В. Влияние условий риска на эффективность функционирования и развития предприятий инвестиционно-отраслевого комплекса: Монография / К.А.Малышева, Б.Б.Хрусталёв, И.В.Сироткин. – Пенза: Изд-во ПГУАС, 2005. – 178 с.

4. Орипов, А. (2020). Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини бошқаришни моделлаштириш асосида рақамли иқтисодиёт воситаларидан фойдаланиш йўналишлари. *Иқтисодиёт ва таълим*, 1(5), 48-53.
5. Орипов, А. А. (2020). Критерии оценки влияния сферы услуг на уровень жизни населения. *Наука сегодня: теория и практика [Текст]: материалы между*, 25.
6. Орипов, А. А. (2020). Сфера услуг как экономическая категория и эффективный вид экономической деятельности. In *Наука сегодня: опыт, традиции, инновации: Материалы международной научно-практической конференции. Вологда* (р. 43).
7. Орипов, А. А. (2020). Приоритетные направления развития сферы услуг Республики Узбекистан. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 334-339).
8. Орипов, А. А. (2019). Развитие информационно-коммуникационных технологий в Узбекистане. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 192-194.